

TURIZM SOHASIDA XIZMAT KO'RSATISH KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI: HUDUDIIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI

D.Umbarov

Qarshi davlat universiteti

Turizm va marketing kafedrası

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda yangi O'zbekistonda turizm sohasini iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish jarayonida xizmat ko'rsatish klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish shart-sharoitlari chuqur tahlil qilingan. Klaster yondashuvi asosida muqaddas joylar negizida Tashrif buyurish turistik klasterlarini tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Xususan, klasterlarning geografik konsentratsiyasi, hududiy birlik, xizmatlar zanjiri, qo'shilgan qiymat tamoyili, infratuzilma, boshqaruv tizimi va AKT imkoniyatlari orqali ularning samarali faoliyat yuritish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Tashrif buyurishchilarning talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib, klasterning organik tuzilmasi, uning tarkibiy qismlari va o'zaro kooperatsiya mexanizmlari aniqlangan. Shuningdek, maqolada "muqaddaslik ko'lami", "sayyorlik darajasi", "destinatsiyalashuv" kabi omillar klasterlashtirishning asosiy shart-sharoitlari sifatida taklif etilib, ularning amaliyotdagi tatbiqiy ahamiyati asoslab berilgan. Xulosa qismida esa Tashrif buyurish klasterlarini samarali tashkil etish uchun xorijiy tajribaga tayangan holda taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlari. Turistik klaster, xizmat ko'rsatish tarmog'i, Tashrif buyurish, muqaddas joylar, destinatsiya, klasterlash shart-sharoitlari, hududiy birlik, qo'shilgan qiymat zanjiri, infratuzilma, turizm infratuzilmasi, raqamli xizmatlar, klaster yondashuvi, Tashrif buyurishchilar oqimi, ziyorat turizmi.


Kirish. Yangi O'zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish jarayonida uning istiqbolli shakli sifatidagi Turizm xizmat ko'rsatish klasterlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida Turizm xizmat ko'rsatish klasterlarini jadal rivojlantirish zarurligini ta'kidlab, yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilganligini bildirdi. Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish uchun mamlakatimizda mavjud bo'lgan boy Tashrif buyurish turistik salohiyatidan xalq manfaatlari yo'lida samarali foydalanish va muqaddas qadamjolar tomon Tashrif buyurishchilar oqimini keskin ko'paytirish uchun Turizm xizmat ko'rsatish klasterlarini

rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini izlash va amalda qo'llash dolzarb masala hisoblanadi.

Asosiy qism. Turizm xizmat ko'rsatish klassterlarini rivojlantirishning amaldagi an'anaviy usul va vositalari asosiy sajda qiladigan muqaddas joylarni jozibali Tashrif buyurish destinatsiyalarga aylantirish, Tashrif buyurishchilarni turli qatlamlarining talab-ehtiyojlarini to'liq inobatga olish, halol turistik xizmatlari sifatini oshirish, turistik faoliyatni majmual va kam xarajatlar bilan yuritish, davlat-xususiy sherikligi usul va vositalarini Turizm xizmat ko'rsatish klassterlarni tashkil qilishda qo'llash, Tashrif buyurish turistik faoliyatining innovatsion va investitsion faolligini oshirish, raqamli Turizm xizmat ko'rsatish klassterlarini rivojlantirish kabi keng qamrovli va samarali imkoniyatlaridan yangi O'zbekistonni barpo etish va rivojlanish talablari darajasida foydalana olmayapti. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun xorijda sinalgan va xizmat ko'rsatish sohasini hududiy jihatdan samarali tashkil etishga qodir bo'lgan klaster mexanizmlarini Turizm xizmat ko'rsatish klassterlarini rivojlantirishda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Klaster yondashuvida Turizm xizmat ko'rsatish klassterlarini rivojlantirish uchun muqaddas joylarni klasterlashtirish shart-sharoitlarini o'rganish talab etiladi. "Muqaddas joylarni klasterlashtirish" deganda biz bunday joylar negizida Tashrif buyurish klasterlarini shakllantirish jarayonini nazarda tutamiz. Tashrif buyurish klasterlarni shakllantirish uchun muqaddas joylarda, fikrimizcha, quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi lozim (1-rasm):


Birinchidan, muqaddas joylarning muqaddaslik ko'lami. "Muqaddas joyning muqaddaslik ko'lami" deganda, biz uning sajdagoh sifatidagi hududiy nufuzi hamda etiqod va ibodat qilish uchun o'ziga jalb etadigan Tashrif buyurishchilarning sonini nazarda tutamiz. Muqaddas joyning bunday ko'lami qancha keng bo'lsa, uni turli hududlardan qatnab Tashrif buyurish qiladigan.



1-расм. Turizm xizmatlari sohasini кластерлаштириш шарт-шароитлари tashkiliy tuzulmasi³³

Tashrif buyurishchilar oqimi shuncha ko'payadi va uning klaster shakllantiruvchanlik xususiyati yuqori bo'ladi. Masalan, oddiy qabristondagi qabr egasining sanoqli avlod-ajdodlari uchun muqaddas joy hisoblanib, ular qabristonga, odatda, juma, diniy bayramlar va boshqa kunlarda Tashrif buyurish qilishga kelib tursalar, Saudiya Arabistonning Madina shahri Nabaviy masjididagi payg'ambar Muhammad (s.a.v.) qabrlari butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas joy sanaladi va 1400 yildan beri har kuni yuz minglab, mavsumlarda esa millionlab odamlar uni Tashrif buyurish qilishadi. Shuning uchun, Tashrif buyurish klasterlarni boshqa turdagi klasterlar singari yaratishning muhim sharti ko'pincha klasterga "birlashtiruvchi tashkilotlarning geografik yaqinligi va ular o'rtasidagi yaqin aloqalarning mavjudligidan" bevosita bog'liq bo'lib qoladi.

³³ Манба:Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.



2-rasm. Turizm xizmat ko'rsatish klassterlarida talab va taklifning uyg'un shakllanishi

Shuning uchun, boshqa turistik klasterlar kabi Tashrif buyurish klasterlarini shakllantirishning yana birta ahamiyatli sharti muqaddas joylarni “sayyohlar kirib borishi uchun iqtisodiy, transport va boshqa qulay imkoniyatlari mavjud bo'lgan jozibador turistik destinatsiyalarga” aylantirish hisoblanadi.

Turizm xizmat ko'rsatish klassterlarining obyektini tashkil etadi. Tashrif buyurishning ichki va tashqi turlarining uyg'un rivoj topishi Tashrif buyurishchilarning talab-ehhtiyojini yuzaga keltiradiki, natijada Turizm xizmat ko'rsatish klassterlari taklif tizimi shakllanib boradi (2.1.2-rasmga qarang).

Klasterning organik tuzilishini klasterlarni shakllantiruvchi bosh mezonlari asosida tuzish mumkin bo'ladi. Gap shundaki, turizm sohasidagi klaster mazmun-mohiyatiga ko'ra “hudud va tarmoq belgilari bo'yicha mahalliy lashtirilgan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) tizimidir”. Bundan kelib chiqib, klasterlarni shakllantiruvchi ikkita bosh mezonni ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular, agar birinchisi klasterlarning “hududga mansubligi” bo'lsa, ikkinchisi – klasterdagi xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning “qo'shilgan qiymat zanjiri” bilan bog'langanligi hisoblanadi.

Tashrif buyurish turistik klasterning hududga mansubligi muqaddas joylar bilan bog'liqdir. Chunki, turizm sohasida klasterlarni yaratish va rivojlantirishda klasterlarning aynan hududiy jihati muhim ahamiyat kasb etadi. Tashrif buyurishchi safarga chiqish oldi, dastlab o'z Tashrif buyurish maqsadidan kelib chiqib, boradigan “Tashrif buyurish hududi” yoxud “turistik destinatsiyasi”ni shakllantirib, keyin bevosita Tashrif buyurish safariga chiqadi. N.V.Rubsova to'g'ri ta'kidlaydiki, “turistik destinatsiyaning chegaralari va rolining o'zgarishi turistik klasterning geografik konsentratsiyasini belgilaydi”. Tashrif buyurish hududi yoxud Tashrif buyurish safar maqsadini amalga oshirishga mo'ljallangan Tashrif buyurishgoh, fikrimizcha, Tashrif buyurish klasterlarining yadrosini shakllantrishning poydevori sifatida xizmat qiladi.

Tashrif buyurish klasterining qiymat ortiruvchanligi turistik xizmatlarni ko'rsatadigan asosiy va qo'shimcha tashkilotlarining bir-biri bilan iqtisodiy hamkorligi va ushbu hamkorlikdan iqtisodiy manfaatdorligini ifodalaydi. Gap birta geografik territoriyada yig'ilgan Tashrif buyurish turistik xizmat ko'rsatuvchi subyektlarining qo'shilgan qiymat zanjirida ulanishi haqida ketiyapti. Turistik klasterda qiymatning jamg'arish tizimi to'rta zanjirlar turidan iborat bo'ladi: 1) ta'minlovlarining qo'shilgan qiymat zanjiri (transport va aloqa kompaniyalar); 2) joylashish vositalari va ko'ngil ochish maskanlari zanjiri; 3) turistik mahsulotni sotish kanallari zanjiri (turoperator, turagentlar); 4) sayyohlarning zanjiri. Butun jahon turistik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sayyohlarning yetti kunli olis turistik hududlarda turishlari vaqtida 10 ta dan 20 tagacha zanjirlar ishga tushar ekan. Sayyohlarga ekskursiya byurosi, turistik adabiyotlarga ixtisoslashgan kitob hamda suvenir sotadigan do'konlar, sug'urta kompaniyalar, valyuta ayirboshlash shaxobchalari, taksi xizmati va boshqa 30-50 ta turli firmalar xizmat ko'rsatish jarayoniga jalb qilinadi. YA'ni Tashrif buyurish turistik klasterlarni yaratish jarayonida klasterga kiritiladigan har bir korxona, tashkilot va muassasa qo'shilgan qiymat yaratishga qodir bo'lishi kerak. Aks holda, ular klaster ichida iqtisodiy manfaat keltirmaydigan, ortiqcha xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib qoladilar.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, yuqorida tasnif va tavsiflangan muqaddas joylarning "muqaddaslik ko'lami", "sayyorlik darajasi", "Tashrif buyurish mahsulotini yuzaga chiqishi" va "Tashrif buyurishchilar uchun turistik xizmatlar majmuasining texnologik zanjirini tuzish mumkinligi" kabi klasterlashtirish shart-sharoitlarining real holatini baholash asosida u yoki bu muqaddas joyning qay darajada Tashrif buyurish klasterini shakllantirish xususiyatiga ega ekanligini aniqlash mumkin, degan xulosaga kelindi.

O'zbekistonda turizm sohasini strategik tarmoqqa aylantirishda xizmat ko'rsatish klasterlarini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Tashrif buyurish turizmini rivojlantirishda muqaddas joylar markazida shakllanuvchi turistik klasterlar turizm xizmatlarini kompleks ko'rinishda ko'rsatish, iqtisodiy faoliyatni hududiy uyg'unlikda tashkil qilish va qo'shilgan qiymat zanjiri asosida yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Tadqiqot davomida Tashrif buyurish klasterlarini shakllantirish uchun muqaddas joylarning muqaddaslik ko'lami, sayyorlik darajasi, destinatsiya salohiyati, transport-logistika imkoniyatlari, xizmatlar infratuzilmasi va raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanganligi muhim omillar sifatida aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. – president.uz

- 
2. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2019 yil 18 mart, №3PV–578. – lex.uz
 3. Porter M. “The Competitive Advantage of Nations.” – New York: Free Press, 1990.
 4. Rubtsova N.V. "Formirovanie turistskix klasterov v regione: teoriya i praktika." – Moskva: Nauka, 2017.
 5. Djamalov N.K., Shomurodov I.K. "Turizmni rivojlantirishda klaster yondashuvining o‘rni va ahamiyati." – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali, 2021, №6.
 6. Bobojonov R. "Turizm xizmatlari sohasini klasterlashtirishda marketing strategiyalari." – “Milliy iqtisodiyot” jurnali, 2020, №2.
 7. UNWTO (World Tourism Organization). “Global Report on Cultural Routes and Pilgrimage Tourism.” – Madrid: UNWTO, 2020.
 8. Lipina S.A., Agapova E.V., Lipina A.V. “Зелёная экономика: глобальное развитие.” – М.: INFRA-M, 2016.
 9. Zohidov Z.I., Yo‘ldoshev B.S. "Ziyorat turizmini rivojlantirishda klasterlash omillari." – “Turizm va madaniy meros” jurnali, 2022, №3.
 10. OECD. “Tourism Trends and Policies.” – Paris: OECD Publishing, 2020.